ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 24.12.2025 · Принята: 08.03.2026 · Опубликована: 31.03.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/kwmj6497

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

O‘zbekistonda koreys xalq qo‘shiqlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati

(The Socio-Cultural Significance of Korean Folk Songs in Uzbekistan)

Lyudmila Kan

The Department of Composers, bastakors and general piano
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: mila.kan.92@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-8205-2431

Annotatsiya

Ushbu maqolada koreys xalqining tarixiy migratsiyasi jarayonida saqlanib qolgan O‘zbekiston koreyslari xalq qo‘shiqlarining xilma-xilligi, ularning tarqalishi hamda O‘zbekiston koreyslarining musiqiy hayotida tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi. Koreys yarim orolidan olib kelingan va migratsiya jarayonida yaratilgan qo‘shiqlar tahlil qilinadi.

Katta avloddan meros bo‘lib kelgan eng mashhur koreys xalq qo‘shiqlari — “Vatan sog‘inchi”, “To‘quvchi”, “Toradi Taryong” tahlil qilinadi. Ushbu qo‘shiqlarning har biri kuy tuzilishi, lad-intonatsion xususiyatlari, metroritmik tuzilishi va mazmuni nuqtayi nazaridan o‘rganilib, tavsiflanadi. Qo‘shiqlarning semantik va poetik yo‘nalishida ularning ma’naviy dunyosi, ahamiyati hamda funksional xususiyatlari ochib beriladi.

Mashhur “Arirang” qo‘shig‘ining turli versiyalari falsafiy jihatdan tahlil qilinib, uning hududiy variantlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Maqola yakunida koreys xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos jihatlari, ularning milliy betakrorligi nimada namoyon bo‘lishi, boshqa xalqlar qo‘shiqlaridan farqli tomonlari hamda zamonaviy O‘zbekiston madaniy hayotida koreys qo‘shiqchilik an’analarining rivojlanish jarayoni yuzasidan ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: xalq, qo‘shiq, kuy, ritm, metr, lad, semantika, poetika, arirang, an’anaviy qo‘shiqchilik.

Abstract

This article examines the diversity of folk songs of Koreans in Uzbekistan that have been preserved through the historical migration of the Korean people, as well as their distribution and functioning within the musical life of the Korean diaspora in Uzbekistan. The study analyzes songs brought from the Korean Peninsula alongside those that emerged during the migration process.

Particular attention is given to the most significant Korean folk songs transmitted through older generations, including “Homesickness,” “The Weaver,” and “Toradi Tareng.” Each of these songs is analyzed in terms of melodic structure, modal and intonational features, metrorhythmic organization, and content. Their semantic and poetic dimensions are explored, revealing their spiritual depth, cultural significance, and functional role.

The philosophical meaning of one of the most well-known versions of the song “Arirang” is examined, and its regional variants are discussed.

In conclusion, the article identifies the distinctive features of Korean folk songs, highlighting their national identity and uniqueness, their differences from the musical traditions of other cultures, and the ways in which Korean song traditions continue to develop within the contemporary cultural life of Uzbekistan.

Keywords: folk, song, melody, rhythm, meter, mode, semantics, poetics, Arirang, song tradition.

Аннотация

В данной статье рассматривается разнообразие народных песен корейцев Узбекистана, сохранившихся в процессе исторической миграции корейского народа, а также их распространение и функционирование в музыкальной жизни корейской диаспоры Узбекистана. Анализируются песни, привезённые с Корейского полуострова, а также произведения, сформировавшиеся в условиях миграции.

Особое внимание уделяется наиболее значимым корейским народным песням, передаваемым от старшего поколения, — «Тоска по родине», «Ткачиха», «Торади тарёнг». Каждая из этих песен анализируется с точки зрения мелодического строения, ладоинтонационных особенностей, метроритмической организации и содержания; раскрываются их семантика, поэтика, духовный мир, а также функциональная роль в музыкальной культуре.

Рассматривается философия одной из наиболее известных версий песни «Ариранг», а также приводятся её региональные варианты.

В заключение формулируются выводы о специфике корейской народной песни, её национальной самобытности и идентичности, отличиях от песенных традиций других народов, а также о её современном развитии в культурной жизни Узбекистана.

Ключевые слова: народ, песня, мелодия, ритм, метр, лад, семантика, поэтика, ариранг, песенная традиция.

Koreys xalq an’anaviy qo‘shiqlari O‘zbekistonda yashayotgan koreys xalqining milliy boyligi hisoblanadi. Koreys qo‘shiqlarining ohanglari tarixiy etnografik manbalarda qayd etilgan. Ular nafaqat Koreyada, balki migratsiya sharoitida ham avloddan-avlodga o‘tib, o‘zining azaliy ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolgan.

«Hech shubhasiz, ulkan ma’naviy boylik – mumtoz san’at, xalq ijodining noyob namunalarini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish barchamiz – davlat va jamoat arboblari, madaniyat va ilm-fan namoyandalarining ezgu vazifasi hisoblanadi», davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ushbu so‘zlari, shuningdek, O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2018 yilda qabul qilingan «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» maxsus rezolyusiyasi [1] tarixan o‘zbek musiqa tizimining ajralmas qismiga aylangan, o‘ziga xos individual ma’naviy dunyosiga ega bo‘lgan, koreys xalq qo‘shiqlari shakllanishining ikki davrini qamrab olgan koreys musiqa madaniyatini o‘rganishda ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin, bular Koreya yarim oroli hududidan saqlanib qolgan qo‘shiqlar va koreyslar Markaziy Osiyo mamlakatlariga, shu jumladan O‘zbekistonga joylashgandan keyin yaratilgan qo‘shiqlardir [2].

Shunday qilib, O‘zbekistondagi koreyslarning an’anaviy xalq qo‘shiqlari bir necha avlodning jamoaviy ijodi mahsuli sifatida quyidagi qo‘shiq guruhlarini o‘z ichiga oladi: maishiy, lirik, epik, vatanparvarlik qo‘shiqlari, ko‘ngilochar va Koreya haqida qo‘shiqlar.

O‘zbekistonda koreyslarning uzoq tarixiy moslashuvi va o‘zbek madaniy muhitiga integratsiyalashuvi yangi koreys xalq qo‘shiqlarining paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu qo‘shiqlarda mazmun o‘zgarishlari kuzatiladi hamda koreys qo‘shiqlariga o‘zbek melosiga xos bo‘lgan ohanglar va melodik aylanmalar kirib kelgani seziladi. Muayyan hududga yoki mehnatga bag‘ishlangan quyidagicha

qo‘shiqlar paydo bo‘ldi: Chirchiqning mo‘l hosili, Chirchiq daryosi, Chirchiq, Sirdaryo to‘g‘risidagi qo‘shiq, yanchish qo‘shig‘i, sholikor qiz, paxta terayotgan qiz, quvnoq yetkazib beruvchi, yoshlik va h.k.

Katta avlod koreyslari uchun eng mashhur va O‘zbekistonda keng tarqalgan 망향가 «Vatan sog‘inchi» qo‘shig‘idir, Chxve Nam Son – musiqa muallifi, taqdir taqozosi bilan Janubiy Saxalinga kelib qolgan koreys ishchisi Cho Myon Xining «Manxyang» (Vatan sog‘inchi) she’riga musiqa yozgan. She’r muallifi ushbu asarlarni mustamlaka Koreyaning og‘ir qismati haqidagi shaxsiy taassurotlari asosida yozgan:

Vatanim, qalbim dardi, Vatanim
Ming chaqirim narida…
Tog‘lar va daryolar bu yerda begona,
Uzoqda yashashga majburman

Vatan haqida g‘amgin o‘ylar,
O‘ylar, faqat u haqda.
Qalbim Vatanga intiladi,
Ona yurtimdan azizroq yer yo‘q.

Qo‘shiq ohangi cho‘zib kuylanuvchi va ifodali bo‘lib, do-minor tonalligida g‘amgin holatda jaranglaydi, u tovushning pastki tayanchiga birin-ketin harakatlanishning to‘lqinsimon yo‘nalishi bilan rivojlanib boradi, ohista sur’atda ijro etiladigan bu qo‘shiq to‘rt taktli jumlalarga asoslanadi. Asarning 6/8 o‘lchovi ona yurt sog‘inchi bilan bog‘liq elegik ruhiyatni ifodalaydi.

배틀가 «To‘quvchi ayol» qo‘shig‘i – to‘quv dastgohida ishlash bilan bog‘liq 민요(minyo), uslubidagi an’anaviy ayollar koreys xalq qo‘shig‘i. Bunday qo‘shiqlar ko‘pincha ayollar tomonidan ish paytida ijro etilgan va ularning his-tuyg‘ulari, fikrlari va umidlarini aks ettiradi. Ular to‘qimachilik, tabiat va hayot bilan bog‘liq ramzlar bilan to‘ldirilgan. Bu qo‘shiq mehnat jarayonlari qo‘shiqlari turkumiga kirib, unda ayollar musiqa vositasida bir-birlariga dalda

berishgan va o‘z tuyg‘ularini ifodalashgan. Koreyada bunday turdagi qo‘shiqlar og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tkazilgan bo‘lib, har bir hududda ularning ozgina farqli talqinlari mavjud bo‘lgan, biroq, qo‘shiqning asosiy matni va ohangi O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan koreys millatiga mansub aholi orasida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Uch hissali o‘lchov, barqaror choraklar va sakkizliklar guruhlari 장단 (Changdan) deb nomlangan, tom ma’noda «uzun-qisqa» deb tushuniladigan, odatiy koreys ritmik tuzilishini ko‘rsatadi [3].

Qo‘shiq matni shundan dalolat beradiki, to‘quv dastgohi va to‘quvchilik hayot va mehnat ramzi, qo‘shiq to‘quv dastgohini o‘rnatishga chaqiriq bilan boshlanadi, qo‘shiqda mehnat-to‘qimachilik orqali his-tuyg‘ularni ifodalash qayg‘u, yolg‘izlik yoki umidni ifodalash usuliga aylanadi, geografik eslatmalar - matnda Koreyaning shaharlari va hududlari tilga olinadi, romantika va orzular- to‘qimachilik muhabbat va kelajak haqidagi fikrlar bilan bog‘liq. Bu qo‘shiqni kuylayotgan qizlar baxtli hayotdan umidvor bo‘lishmoqda, g‘amginlik va falsafiy mulohazalar - qo‘shiq vaqtning tez o‘tib borishi haqida so‘zlaydi. Bunday mehnat qo‘shiqlari Koreyaning nomoddiy madaniy merosining bir qismi hisoblanib, to‘qimachilik bilan shug‘ullangan ayollarning an’anaviy turmush tarzi va hissiy dunyosini tasvirlaydi.

«Toradi Taryong» O‘zbekistonda, shuningdek Koreya, Xitoy va Yaponiya koreyslari orasida keng tarqalgan qo‘shiqlardan biridir.

도라지 타령 «Toradi Taryong» – an’anaviy koreys xalq qo‘shig‘i bo‘lib, asosan folklor asboblari yordamida ijro etiladi. Qo‘shiq Koreyaning tog‘li hududlarida o‘sadigan «Toradi» guliga bag‘ishlangan bo‘lib, gulning ildizi o‘simlikning go‘zalligi va chidamliligini, xuddi shu kabi koreys xalqining fe’l-atvorini ham aks ettiradi. Qo‘shiq matni ko‘pincha nostalgik motivlar bilan to‘ldirilgan va koreys zaminidagi oddiy, ammo boy hayotni tasvirlaydi. Ushbu

qo‘shiq butun dunyodagi koreys xalqining madaniy merosida muhim o‘rin egallaydi va turli xil bayramlar hamda tadbirlarda tez-tez ijro etiladi.

Qo‘shiq koreyschaga xos uch hissali ritmda, ko‘tarinki kayfiyatdagi G-dur tonalligida ijro etiladi, chorak cho‘zimlarda takrorlanuvchi «si» notalari motivning tayanch tovushlari vazifasini o‘tab, koreys mentalitetining qat’iyatli ruhini aks ettiradi, qo‘shiqning ohangi shoshilmay, ravon va cho‘zib aytiladigan bo‘lib, boshqa qo‘shiqlarga o‘xshab angemiton pentatonikaga asoslangan. Punktir ritmning paydo bo‘lishi bilan, kuy ohangining butun go‘zalligiga qaramay, qo‘shiq xarakteriga koreys millatining jangovar matonati va bukilmasligi xususiyatlari qo‘shiladi.

Koreys milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi muhim qo‘shiqlardan yana biri «Toradi Taryong» qo‘shig‘i bilan bir qatorda, yana bir muhim qo‘shiq «Arirang» koreys madaniyatining ramzi, milliy merosning muhim qismi bo‘lib, butun dunyodagi barcha etnik koreyslarni birlashtirgan norasmiy madhiyani ifodalashi, «Arirang» qo‘shig‘ini tinglash har bir koreys uchun o‘z nasli, an’analari va birligini eslatuvchi ramzni anglatadi, qo‘shiqning ohangi esa shunchalik sodda va shu bilan birga o‘ziga xos va oson esda qoladiganki, uni O‘zbekistonda ham, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham yashovchi turli millatga mansub xalqlar birinchi notalardanoq tanib olishlari mumkin.

아리랑 아리랑 아라리 요

Arirang, arirang, arari yo

아리랑 고개 고개 로 나를 넘겨 주게

Arirang tog‘idan, tog‘dan o‘tkaz meni.

눈 이 올려 나 비가 올려 나 억수 장마 질려나

Qormi yog‘ayotgan, yoki kuchli yomg‘ir yog‘ishi mumkinmi?

만수산 검은 구름 이 막 몰려 든다.

Mansu tog‘ida qora bulutlar to‘planmoqda.

명사십리 가 아니라면 은 해당화 는 왜 피나

Agar bu Myonsa-sipri bo‘lmasa, nima uchun kalina gullamoqda?

모춘삼월이 아니라면 두견새는 왜 우나

Agar bu mart oyi bo‘lmasa, nima uchun kakku sayramoqda?

정선 읍내 일백이십호 몽땅 잠들여 놓고서

Butun Chonson shahri 120 ta uyi bilan uxlab qoldi

이장네 만며느리 데리고 성마령을 넘자

Qishloq boshining kelini bilan Sinma-Ryon tog‘idan oshib o‘taylik

«Arirang» tushunchasi (koreyschada 아리랑) koreys tilidan tarjima qilinganda, shu nomdagi tog‘ cho‘qqisiga chiqish yo‘lida bosib o‘tish kerak bo‘lgan xayoliy dovon nomini anglatadi. Dovon baxt, farovonlik va erkinlik cho‘qqisiga chiqish uchun koreyslar bosib o‘tishi kerak bo‘lgan mashaqqatli yo‘lni anglatadi. Qo‘shiq tarixi esa 600 yildan ortiq vaqtni o‘z ichiga oladi va sevishganlar Son Bu va Ri Rane haqidagi afsona bilan bog‘liq. Sog‘inch, adolat uchun kurash va baxtga intilishni ifodalovchi qo‘shiq o‘nlab versiyalarga ega bo‘ldi. Koreya yarim orolining mintaqasiga qarab, «Arirang» qo‘shig‘ining turlicha xillari mavjud, eng mashhurlari 정선 아리랑 chongson arirang, 밀양 아리랑 miryang arirang, 강원도 아리랑 kangvondo arirang, 상주 아리랑 sangju arirang, 해주 아리랑 xeju arirang, 진더 아리랑 chindo arirang. Va shuningdek, 경기 아리랑 kyongi arirang yoki 구아리랑 kuarirang deb nomlangan qo‘shiq 1926 yilda «Ariran» nomli ovozsiz film chiqqandan keyin eng mashhur variantlardan biriga aylandi. O‘zbekistonlik koreyslar orasida Arirang qo‘shig‘ining bu talqini eng asl va an’anaviy qo‘shiq sifatida e’tirof etiladi, chunki uning nomida biror-bir aniq hudud ko‘rsatilmagan. Arirangning aynan shu versiyasini 1937 yildagi ko‘chmanchilar o‘zlari bilan olib kelishgan, ular yangi vatanlarida omon qolishning barcha qiyinchiliklarini boshdan

kechirishib, ushbu qo‘shiq koreys xalqining milliy ruhining ramziga aylangan. O‘zbekistondagi koreys xalqi bu qo‘shiqni katta avloddan kichik avlodga og‘zaki ravishda yetkazib, mehnat paytida kuylagan, ushbu qo‘shiq hozirga qadar koreyslarning eng muhim uchta tadbirlari: 결혼식(Kyolxonsik) – to‘y marosimi, 아스얀디(asyandi) - bolaning birinchi tug‘ilgan kuni, va 한가비(xangabi) - ota-onaning 60 yillik yubileyi vaqtida kuylanadi.

Asosiy satr «Ariran, Ariran, Arariyo» qat’iy leksik ma’noga ega emas, bu qo‘shiqni ijodiy talqin uchun o‘ziga xos bo‘lishiga yordam beradi. Ammo qo‘shiq mavzusi odatda g‘am-alam, ayriliq, qayta uchrashish va sevgi ma’nolarini o‘z ichiga oladi [4].

Nota manbalaridan ko‘rinib turibdiki, «Arirang» ohangi kuylanuvchan lirik xususiyatga ega bo‘lib, ohista harakatda major pentatonika tovushlari asosida qurilgan. Ohang odatda ¾ (semachi) o‘lchovida kuylanadi, ritm, chorak nuqtali va uchta sakkizinchi, choraklarning bosqichma-bosqich harakati ravon aytilish va shikoyat bilan kuylash hissini yaratadi [5].

Ohang bir oktava doirasida rivojlanib boradi, bu xalq musiqasiga xos xususiyat bo‘lib, uni tezda yodda saqlab qolishga imkon yaratadi, uning dastlabki «uch xordli» motivi (re-mi-sol) tarixan butun dunyo bo‘ylab koreys xalqining chin ma’nodagi genetik kodiga aylanib qoldi, O‘zbekistonda esa o‘zbek xalqi musiqa madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Etnik koreyslar O‘zbekiston jamiyatining ajralmas qismi bo‘lganligi sababli, so‘nggi o‘n yilliklar davomida koreys madaniyati o‘zbek jamiyati ongiga singib bora oldi. Odamlar koreys oshxonasini, urf-odatlarini, jumladan, musiqa madaniyatini ham osonlik bilan tanib olishadi. Musiqa san’atiga kelsak, «Arirang» yangraganda tinglovchi uning milliy mansubligini tez anglaydi va unga quloq tutadi. «Arirang» o‘zining sharqona betakrorligi bilan barcha tinglovchilarni, shu jumladan, o‘zbek xalqini ham beixtiyor o‘ziga jalb etadi.

Koreys qo‘shiqlarining ushbu namunalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, koreys madaniyatining o‘zbek madaniyati bilan muvaffaqiyatli o‘zaro ta’siriga qaramay, O‘zbekistondagi koreys xalqi o‘zining an’anaviy milliy qo‘shiq merosining o‘ziga xosligini saqlab qola oldi, o‘ziga xos musiqiy tilning xususiyatlari esa quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1) melodika ifodasining ixchamligida
2) pentatonikaning maqomiy tuzilishida
3) ¾ o‘lchovidagi yoki 6/8 triol xarakteridagi xarakterli ustun ritmda, uzun va qisqa cho‘zimlarning navbatma-navbat kelishi bilan
4) bir tekis, osoyishta sur’atda
5) bir maromdagi, osoyishta sur’atda
6) iboralarning takrorlanishi va aylanib kelishida
7) matnlar asosida – koreys afsonasi, koreys tili

Bugungi kunda Koreya madaniyat markazlari Assotsiatsiyasiga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik tufayli koreys xalq qo‘shig‘i o‘z an’analarini koreys xor harakatida davom ettirmoqda, bu esa mamlakat madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallab, koreys milliy madaniyati va san’atini saqlash va rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda, zero koreys madaniyati vakillari uchun bu shunchaki qo‘shiq kuylash emas, balki o‘tmish bilan jonli muloqot bo‘lib, u orqali ajdodlarning kuch-qudrati va donishmandligidan bahramand bo‘lishdir. O‘zbekistonliklar esa o‘z navbatida Uzoq Sharqni eslatuvchi o‘ziga xos kuylarni, konfutsiychilik falsafasini va buddaviylikning ma’naviy olamini qiziqish bilan qabul qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil 4 sentabrdagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4436-son qarori. — Elektron resurs. — URL: https://lex.uz/docs/4500899 (murojaat qilingan sana: 28.03.2026).

2. Хан Я. Забытые песни о главном. Т. 1 / ред. Ким Бён Хак. — Сеул: Хванам, 2007. — 542 с.
3. У Ген Ир. История музыки Восточной Азии (Китай, Корея, Япония): учеб. пособие. — Санкт-Петербург: Планета музыки, 2011. — 544 с.
4. Gim Ban B. A musical analysis on Korean diaspora Arirang songs // Uzbekistan-Korean International Mutual Understanding Music Festival «Arirang». — Seoul, 2012. — P. 25.
5. Яковлев М. Корейская музыка // Музыкальная энциклопедия. Т. 2: Гондолера—Корсов / гл. ред. Ю. В. Келдыш. — Москва: Советская энциклопедия, 1974. — С. 943–950.

References

1. Mirziyoev, Sh. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil 4 sentabrdagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4436-son qarori* [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4436 “On Additional Measures to Improve Religious and Educational Activities,” September 4, 2019]. Electronic resource. Accessed March 28, 2026. https://lex.uz/docs/4500899. (in Uzbek)
2. Khan, Ya. *Zabytye pesni o glavnom* [Forgotten Songs about the Main]. Vol. 1. Edited by Kim Byon Khak. Seoul: Khvanam, 2007. (in Russian)
3. U Gen Ir. *Istoriya muzyki Vostochnoy Azii (Kitay, Koreya, Yaponiya)* [History of Music of East Asia (China, Korea, Japan)]. Saint Petersburg: Planeta muzyki, 2011. (in Russian)
4. Gim Ban, B. “A Musical Analysis on Korean Diaspora Arirang Songs.” In *Uzbekistan-Korean International Mutual Understanding Music Festival «Arirang»*. Seoul, 2012.
5. Yakovlev, M. “Koreyskaya muzyka” [Korean Music]. In *Muzykalnaya entsiklopediya*, vol. 2: Gondolera—Korsov, edited by Yu. V. Keldysh, 943–950. Moscow: Sovetskaya entsiklopediya, 1974. (in Russian)